



INDIVIDUAL YONDASHUVLAR ASOSIDA MUSIQA O’QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Muallif: Davronova Guzal¹

Affilyatsiya: O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d.¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406272>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishda individual yondashuvlar bugungi ta’lim tizimining dolzarb masalasi sifatida o‘rganilgan. Shuningdek, musiqa ta’limida individual yondashuvlarning dolzarbligi, zamonaviy pedagogika va metodikada alohida ahamiyat kasb etishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Metodika, takomillashtirish, ta’limni insonparvarlashtirish, diagnostika, globallashuv, modernizatsiya, innovatsion yondashuv. interaktiv usullar

Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida, ta’lim sifatini oshirish, dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni shiddat bilan rivojlanishi, har bir yo‘nalishda o‘qitish metodikasini takomillashtirishni talab etmoqda. Globallashuv, modernizatsiya hayotimizga, ta’lim-tarbiya tizimiga yangi tushunchalar, atamalar, texnologiyalarni olib kirish bilan birga, o‘qitish jarayoniga innovatsion metodik yondashuvlarni talab etadi. Bu kabi o‘zgarishlarning jarayonida eskirgan bilim, ko‘nikma va malakalar, hozirgi kunda zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Yangi O‘zbekiston “Uchinchi Renessans sari” g‘oyasi asosida o‘z taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qoydi. Bunday sharoitda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini, hamda, pedagogik faoliyatni zamon talablari asosida, ya’ni bugungi kunning ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil qilish, shuningdek, sohada innovatsion fikrlash orqali yangi mexanizmlarni joriy qilishni davrni o‘zi taqozo qilmoqda.

“Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2-fevral 2022 yildagi PQ-112-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori[1.] hamda, “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 15-noyabr 2024 yildagi PQ-391-son Prezident Qarori qabul qilindi [2.] Ushbu qarorga asosan, musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimi yo‘lga qo‘yilishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, 2025 yil 1-martdan boshlab musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari uchun nazariya va amaliyot uyg‘unlashtirilgan holda malaka oshirish tizimi yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilmoqda. Oliy ta’limda o‘qitish jarayonini yanada takomillashtirish, bo‘lajak musiqachi-pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiruvchi metodlardan foydalanish, kasbiy va maxsus kompetensiyasini shakllantirish, ularning samarali o‘qitish

metodikasiga ega bo'lishlari, jamiyatimiz ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishga, hamda, ushbu qarorlarning ijrosini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa o'qitish metodikasi, nafaqat musiqqa nazariyasi va amaliyotini o'rgatishni, balki, talabalarni musiqiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bilan bir qatorda, zamonaviy musiqqa madaniyati o'qituvchisini pedagogik mahorati, o'qitish metodikasini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu fan o'qituvchilardan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini oson va qiziqarli shaklda tashkil etishga o'rgatadi. An'anaviy metodlarni zamonaviy interaktiv usullar bilan uyg'unlashtirish, raqamli resurslardan foydalanish, individual yondashuvlarni amalga oshirish orqali musiqqa o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bugungi kunda talabalar mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun mos sharoitlarni yaratish, ularga erkin ijodiy jarayonni o'zlashtirish imkonini beradigan o'quv muhitini yaratishda ham, individual yondashuvlarni ahamiyati katta.

Bunda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy tashkil etilishi, ta'lim jarayonining markaziga talaba shaxsi va uni rivojlantirish qo'yilib, ta'limda insonparvarlik amalga oshiriladi. X.Ibraimov, M.Quronovalarning "Umumiy pedagogika" nomli kitobi, "Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji" mavzusida, "Ta'limning insonparvar modeli" – o'quvchilarning ichki olamini boyitish, muloqot, diologlar orqali uni pedagogik psixologik qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi. Bunda ta'lim professional yondashuvga asoslanib, o'quvchining individual-psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga, o'quvchi shaxsini hurmat qilishga qaratilgan. "Gumanistik model" tarafdorlari ta'lim muassasasiga "ta'lim konveyeri" degan qarashni qoralashadi. Ularning fikricha, ta'lim insonning tabiatiga to'liq mos bo'lishi, undagi tabiiy layoqatlarni rivojlantirishga yordam berishi kerak. Buning uchun o'quvchiga iloji boricha ko'proq erkinlik berish, o'zligini anglash va o'z-o'zini rivojlantirish uchun sharoit yaratib berish kerakligi ta'kidlab o'tilgan. [3, 386-b.]

Musiqqa o'qitish jarayoni nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni, balki o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini ochib berishni ham nazarda tutadi. Individual yondashuv esa, har bir talabaning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos tarzda ta'lim jarayonini tashkil qilish imkonini beradi. Ushbu mavzu doirasida musiqqa o'qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Individual yondashuv: ta'lim jarayonida har bir talabaning imkoniyati, qiziqishi va darajasiga mos individual yondashuvchi dastur va loyihalash ishlab chiqish va shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olish muhimdir. Bu orqali bo'lajak musiqqa ta'limi o'qituvchilarining maxsus va kasbiy kompetensiyasini oshirish imkoniyati kengayadi.

Musiqiy diagnostikaning asosiy maqsadi insonda hissiy holatni aniqlash, muammolarni bartaraf etish, stressni kamaytirish yoki shaxsiy o'zgarishlarga yordam berishdir. Ushbu diagnostika orqali quyidagi jihatlar o'rganilishi mumkin:

hissiy holat – musiqaning turli janrlari va uslublari odamlarning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi;

ijtimoiy faollik – musiqiy ta'sir orqali o'quvchilarni ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishi. Tashabbuskor, shijoatli, tashkilotchi, faol, kreativ fikrlovchi, ijodkor shaxs tarbiyasi;

kognitiv faollik - musiqqa tinglash jarayonida aql-idrokning faol ishlashi, masalan, musiqani eslab qolish va tahlil qilish va boshqa holatlarda.

Musiqiy diagnostika qilishning turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin, jumladan:

musiqiy testlar; intervyu va so'rovnomalar; musiqiy muloqot va ijro etish va boshqalar [4, 256-b.]

Musiqiy materiallarni o'quvchining darajasiga moslashtirish:

O'quvchi talabalarning o'ziga xos xususiyatlariga va rivojlanish darajasiga asoslangan holda dars jarayonini loyihalashtirish. Yangi texnologiyalarni qo'llash: Onlayn platformalar va raqamli vositalar orqali individual mashg'ulotlarni tashkil qilish. Bugungi kunda musiqa o'qitishda va boshqa sohalarida ham yangi tenologiyalarni qo'llash ko'proq samara beradi.

Kreativlikni rivojlantirish: Musiqa ta'limida kreativlik va ijodkorlikni rag'batlantirishga e'tibor berish zarur. Bu talabalarda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishda muammolarni ijobiy hal qilish, o'z metodikasini rivojlantirish va faoliyatida yangi g'oyalarni yaratish imkonini beradi.

Ko'p madaniyatli yondashuv: Turli mamlakat musiqa madaniyatini o'rganish orqali, talabalar global musiqiy an'analar haqida ko'proq bilimga ega bo'lishlari kerak. Global musiqiy an'analar, turli millatlar va madaniyatlar o'rtasida musiqaning qanday rivojlanganini, turli uslublar, ritmlar, tovushlar va qo'shiqlarni o'z ichiga oladi.

Metodik materiallar yangilanishi: Musiqa o'qitish bilan bog'liq nazariy va amaliy fanlar bo'yicha metodik qo'llanmalar va materiallar tayyorlash muhim. Bu qo'llanmalar bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kuchli musiqachi-pedagog bo'lib shakllanishiga xizmat qilishi lozim. Musiqa o'qitish va boshqa fanlarni integratsiya qilish: Musiqa o'qitish jarayonini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish, masalan, san'at, tarix yoki psixologiya, pedagogika bilan bog'lash orqali, talabalar uchun qiziqarli va ko'p qirrali o'qitish imkoniyatlarini yaratadi.

Hamkorlik pedagogikasiga erishish: Talabalar o'rtasida hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish. Ushbu yondashuvlarni muntazam joriy qilish, musiqa ta'limini yanada sifatli va samarali qilishga xizmat qiladi, talabalarning musiqiy va pedagogik qobiliyatlarini rivojlantiradi va kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam beradi.

Musiqa o'qitish jarayonida individual yondashuvni qo'llash bugungi ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Bu yondashuv har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi, bilim darajasi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'qitishni tashkil etishga asoslanadi. Xususan, musiqa ta'limida individual yondashuvning muhimligi bir nechta omillarga bog'liq:

Shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish:

Musiqa ijrosi va yaratish jarayoni ijodkorlik talab qiladi. Individual yondashuv har bir o'quvchining o'ziga xos iste'dodini ochib berishga yordam beradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda, musiqachi-pedagog shaxsini shakllantirish, har bir talabaning imkoniyatidan kelib chiqib, o'qituvchilik qiyofasini yaratish, bu jarayon orqali musiqa o'qituvchisida o'qitish metodikasini shakllantirish imkonini beradi.

Qobiliyatlar va imkoniyatlarni inobatga olish: Talabalarda musiqiy, ijodiy va pedagogik qobiliyatlari va o'zlashtirish tezligi har xil bo'ladi. Individual yondashuv bu

farqlarni hisobga olib, har bir talabaga mos o'quv rejalarini tuzishni, topshiriqlar shakllantirishni, metodik yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy talablar: Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun ta'lim tizimi ko'proq ijodkor, moslashuvchan va mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislarni yetishtirishni talab qilmoqda. Musiqa o'qitish jarayonida individual yondashuv bu maqsadga mos keladi.

Individual yondashuvlarning amaliy ahamiyati:

Texnik ko'nikmalarni rivojlantirish: Har bir talaba uchun maxsus mashqlar, repertuar, metod va metodikalar tanlash orqali musiqiy texnik mahoratni samarali rivojlantirish mumkin.

Ijro uslubi va yondashuvdagi o'ziga xoslik: Har bir talabaning ovoz diapazoni, ritmni his qilish qobiliyati yoki musiqiy eshitish darajasi har xil. Individual yondashuv bu o'ziga xosliklarni aniqlab, ular asosida ijro uslubini rivojlantirish imkonini beradi.

Metodik yondashuvlar:

Differensial yondashuv: Talabalarni fanni o'zlashtirishlari, qobiliyatlariga qarab guruhlarga ajratib, mos metodlarni qo'llash.

Repertuarni moslashtirish: Har bir talabaning qiziqishlariga mos keladigan musiqiy asarlarni tanlash.

Shaxsiy maqsadlarni belgilash: Har bir talaba bilan alohida maqsadlar qo'yish va ular tomon qadam-baqadam intilish. Bo'lajak musiqa madaniyati o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda to'g'ri metodik yondashuvlarni amalga oshirish ko'proq natijaga olib boradi.

Xulosa qilib aytganda, individual yondashuvlar asosida musiqa ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni mustaqil musiqachi-pedagog sifatida shakllantirish uchun muhim vositadir. Bu yondashuvni qo'llash musiqa o'qitish metodikasini yanada samarali va zamonaviy talablarga mos qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish va shaxsiy yondashuv metodlarini chuqurroq o'rganishini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

“Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (02.02.2022 yildagi PQ-112-son)

“Umumiy o’rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o’qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o’qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident Qarori (PQ-391-son, 15.11.2024).

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son

X.Ibraimov, M.Quronov Umumiy pedagogika darslik - T “Shahhof” nashriyoti, 2023 yil. 416 bet.

G.M. Davronova. Musiqa o’qitishda innovatsion texnologiyalar [Matn]: darslik O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti – Samarqand: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 302 bet.

G.M.Davronova “Musiqa o’qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini takomillashtirish talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim omili

sifatida. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi - 2023-yil_12-son

G.M. Davronova Musiqa o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlarining musiqa ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2021yil, – 192 bet.

